

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANI O'QITILISHINING  
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Xamroyeva Shalola Aminjon qizi**  
**Rahmonova Nafisa Hazratovna**  
*Navoiy viloyati Navbahor tumani*  
*5- umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*Texnologiya fani o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini unumli o'qitishning maqsadi-o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlash, ularni ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda kasb tanlashga tayyorlash orqali ularni kasbga tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.*

**Kalitso'zlar:** *texnologiyafani, ko'nikma, malaka, ko'rsatmalilik, dars, mashg'ulot*

Texnologiya fani darslari o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tayyorlashlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Maktablardagi texnologiya fanini shartli ravishda o'quv va unumli mehnatga bo'lish mumkin.

O'quv mehnati aktiv faoliyat bo'lib, o'zini atrofidagi muhitni va o'zini bilishga qaratilgan, maqsad, kuch, g'ayrat va erishilgan natijalar mavjud bo'lgandagina ta'lim jarayoni mehnatga aylanadi. O'quv mehnati faol fikrlash, bilimlarni mustaqil egallash, qayta ishlash va ijtimoiy tajribada qo'llash asosida amalga oshiriladi. Shu asosda kishining o'z qarashlari va e'tiqodi shakllanadi. Kamol topayotgan kishilar faqat fan asoslarinigina emas, balki ularning amaliy texnologik mazmuni va tadbiiq etilishini ham o'zlashtirib oladilar. Shu bilan birga bu jarayon amaliyotning nazariyaga singib ketishi sifatida emas, balki nazariy va amaliy mo'ljal asoslarining qo'shilib ketishi singari namoyon bo'ladi.

Texnologiya fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni mehnat ta'limi tayyorgarligi, kasblar bo'yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo'linadi. Bu qismlar har bir dars va amaliy mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularni o'qituvchilar tomonidan ilmiy, uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi, texnologiya fani mashg'ulotlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

Umumta'lim maktablarining texnologiya fani va undan keyin yuboriladigan atrofidagi korxonalar, tashkilotlardagi kasblarga muvofiq kasbga yo'llash. Shunga ko'ra har bir maktabda texnologiya faniga quyidagi yo'nalishlarni asos qilib olish mumkin:

-yog'och va metalga ishlov berish texnologiyasi;

-gazlamaga ishlov berish texnologiyasi;

-pazandachilik asoslari;

-qishloq xo'jalik asoslari;

-yog'och va metalga ishlov berish, gazlamaga ishlov berish va boshq. yo'nalishlar bo'yicha xalq hunarmandchiligi.

Ushbu yo'nalishlarning har biri yuzasidan quyidagi bo'limlar bo'yicha o'zaro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalarini shakllantiriladi.

1.Materialshunoslik asoslari;

2.Asbob-uskunalar haqida ma'lumotlar va ishlatish usullari;

3.Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalarning umumiy tuzilishi;

4.Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi;

5.Xalq hunarmandchiligi bo'yicha barcha kasblardan umumiy ma'lumotlar berish.

Bundan tashqari uy-ro'g'zor madaniyati va unga tegishli ta'mirlash ishlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, kompyuter texnologiyasidan foydalanish, elektrotexnika vositalaridan to'g'ri foydalanish va ta'mirlash, iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlar hamda xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena qoidalari haqidagi bilimlar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda beriladi[5].

O'quvchilar texnologiya ta'limini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarni hal qilishi lozim:

Tashkiliy vazifalar: Texnologiya fani bo'yicha o'quv xonasi va ustaxona tashkil qilish va ularda xavfsizlik, qulay mehnat sharoitlarini yaratish. Mahsulotlar uchun zaruriy xom-ashyo, material, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, hamda moslamalar mexanizmlar, dastgohlar bilan amaliy ishlash jarayonini tashkil qilish. Sanitariya, gigiyena hamda mehnat xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarni to'liq bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish, kasblar va kasb egalari bilan yaqindan tanishish uchun korxonalar, jamoa xo'jaliklari, tashkilotlar, muassasalar bilan doimiy aloqa o'rnatish va shartnomalar tuzish.

Rasmiy hujjatlar: me'yoriy rejalashtiruvchi hujjatlar- ustaxona xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalariga doir xujjatlarni yuritish.

Uslubiy vazifalar: mashg'ulotlarni ish rejalarini tuzish. Bunda mahalliy sharoitlar, ehtiyojlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin bo'lgan kasb turlarini tanlash, o'g'il va qiz bolalarning o'zlariga xos mehnat mashg'ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirish, mashg'ulotlarda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi didaktik vositalardan keng foydalanish, ta'lim va

tarbiyani birligini ta'minlash, o'quvchilarga turli kasblarga tegishli dastlabki mehnat, ko'nikma va malakalarni, mehnatsevarlikni shakllantirish. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy va ahloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlarini, shaxsiy psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olish va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini reyting tizimi asosida nazorat qilib borish. Xalq hunarmandchiligini ayrim kasblarini o'rgatish uchun ustoz-shogird yoki ota-o'g'il, ona-qiz shakllaridan foydalaniladi. Bunday mashg'ulotlarni tegishli xalq ustalari bilan maktab o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida tashkil qilinadi.

Malaka-kishining kasb mahoratini, hunarni egallash darajasidir. Ishning malakasi ta'rif zaryadi, klass yoki unvon bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish jarayonini har qanday mashina, mexanizm va hatto ayrim detallarni yaratish. Bu jarayon oxirigacha bajarilgan ishlar siklidan iboratli bo'lib farqlanadi.

Texnologik jarayon-ishlab chiqarishning bir qismi bo'lib, har qanday buyumni yaratish uchun ashyolar holatini o'zgartirishdan iboratdir.

Texnologik operatsiya-texnologik jarayonning bir ish o'rnida bitta yoki bir necha ishlar oxirigacha bajariladigan qismidir. Masalan: bichish, tikish va hakoza.

Ish usuli-ishchining texnologik operatsiyasida ayrim texnologik o'tishlarni bajarishdagi harakatlari majmuidir. Mehnat harakati ishchining biror texnologik o'tish elementini bajarishi. Ish harakati ishning biror texnologik o'tishni bajarish uchun mehnat harakatlarining majmuidir.

Ta'limning tarbiyaviyligi: o'quv materiali mazmunining g'oyaviy yo'nalishini belgilash. O'qituvchining yuksak g'oyaviy-siyosiy sifatleri va shaxsiy ibratli. Mehnat va kasb ta'limi jarayonida uzluksiz tarbiyalash ishlarini amalga oshirish.

Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish: hozirgi zamon fanida uzul-kesil isbotlangan qoidalarni o'zlashtirish. Faqat fan va texnikada qabul qilingan atamalardan foydalanish, mamlakatimizda va chet ellarda fan-texnika bo'yicha erishilgan yangi muvaffaqiyatlarni o'rganish.

Ta'limning muntazamligi va izchilligi: Texnologiya ta'limini dasturdagi tartibda tashkil etish, shuningdek, o'qitishni yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadida, ilgari o'rganilgan materiallarga bog'lab amalga oshirish.

Nazariyani amaliyotga bog'lash: nazariy bilimlardan amaliyotda va o'quvchilarning tajribalaridan nazariy mashg'ulotlardan foydalanish.

Ta'limning o'quvchilarga tushunarligi: ta'limning mazmuni uning usullarga mos bo'lishi, o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyat va yosh xususiyatlarini hisobga olish. Bu talabalar o'quv materialini qismlarga to'g'ri taqsimlash, ta'limning turli usullaridan foydalanish, vaqt normalarini to'g'ri belgilash, o'quvchilarning qiziqishlarini nazarda tutish bilan bajariladi.

Ta'limning politexnik yo'nalishi: hozirgi zamon taraqqiyoti to'g'risida, ishlab chiqarishda ko'p uchraydigan texnologik jarayonlar to'g'risida, mashina va

mexanizmlarning tuzilishi va ishlashidagi umumiylik to'g'risida ma'lumotlar berish, xilma-xil mehnat malakalarini singdirish, mehnat masalalarini ijodiy xal qilishni, ixtirochilik ishlarini, umumta'limiy va maxsus fanlardan olingan bilimlarni amalga tadbiq etishni o'rgatish.

Ta'limiy va tarbiyaviy mehnat: ijtimoiy foydali buyumlar yaratish borasidagi unumli mehnat asosida ishlab chiqarish ta'limi berish. Bu mehnat texnologik jihatdan yaxshi ta'minlanishi bilan farqlanadi.

Ta'limning ongliligi va faolligi: ta'limni o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni tarbiyalaydigan yo'sinda olib borish. Mana shu fazilatlar o'quv materiallarni yaqqol ifodalash va ularni o'quvchilar tushunib o'zlashtirishi, nazariy hamda ishlab chiqarish ta'limini uzviy bog'lab olib borish, ta'limning eng samarali usullardan foydalanish natijasida tarkib topadi.

Ko'rsatmalilik: ta'limni o'quvchilarda dunyodagi narsa va hodisalar to'g'risida jonli mushohada asosidagi tushuncha tasavvur hosil qiladigan, ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan yo'sinda amalga oshirishni ta'minlash. Ko'rsatmalilik ekskursiyalar uyushtirish, mehnat usullarini, taqdimot, sxema, buyumlarning namunalarni, videofilmlarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish: o'tilgan o'quv materiallarni muntazam ravishda takrorlab borish, yangi materialni mustahkamlash tadbirlarini qo'llash. Bunga materialni tushunarli qilib bayon etish, mashqlar o'tkazish, ilgari o'tilgan materialni o'z o'rnida takrorlash, ularni asta-sekin murakkablashtira borish, doimo o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish orqali erishiladi.

Texnologiya fani darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan birga tevarakatrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim. Shuning uchun hozirgi kunda texnologiya fani darslarida "o'z-o'zini boshqarish" va "o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash" kabi ijodiy amaliy ishlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilar "Yog'ochlar bilan ishlash" mashg'ulotlarida kerakli asboblardan va kerakli yog'och materiallarni yordamida aniq reja belgilab, o'lcham oladilar va shu o'lcham asosida har xil shakldagi yog'och konstruksiyalar yasashni o'rgatadilar. Konstruksiyalarni yasash jarayonida qaysi yog'och turini ishlatishni, materialni isrof qilmaslikni, ishning sifatligini, yog'och konstruksiyaning estetik jihatdan bejirim va chiroyli bo'lishiga harakat qiladilar.

O'quvchilarning bajargan ishlari asosida maktab sharoitidan kelib chiqib, har xil ko'rgazmalar yoki o'quvchilarning o'zlari uchun maktab bozorlarini tashkil etish mumkin. Bu o'quvchilarda o'ziga ishonch, ijodkorlikka intilish, o'zgaralar mehnatiga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi. O'quvchi ongida mehnatga muhabbat xissi qaror topadi. Natijada o'zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimiz rivoji uchun munosib hissa qo'sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash borasida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritishimiz mumkin.



Mashg'ulot ta'lim-tarbiya jarayonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham davr talabiga mos kadrlar tayyorlashda maktabning o'рни katta ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'tishi talab etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: O'qituvchi, 2004.
- 2.Abdullayeva Sh., Axatova D.A. Pedagogika.- T.: Fan, 2004.
- 3.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 4.[www.vse.uz](http://www.vse.uz)